



№3/2024

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**ADPI**  
**Ilmiy xabarnomasi**

## MUNDARIJA

### PEDAGOGIKA

<b>Yulbarsova X.A.</b> Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish tuzilmasi va tavsifi .....	4
<b>Xushnazarova M.N.</b> Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorlashda pedagogika fanining samarali usullaridan foydalanish .....	10
<b>Raxmedova M.A.</b> Mahmud az-Zamaxshariyning ma'naviy merosidan yoshlarni axloqiy tarbiyalashda foydalanish imkoniyatlari .....	13
<b>Ismoilov Y.Q.</b> Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning texnologik masalalari .....	17
<b>Iminova H.M.</b> Ta'lim tizimiga konsentrlangan ta'limni integratsiya qilishning zamonaviy pedagogik tendensiyalari .....	20
<b>Muladjanova G.A., Mullajonova M.D.</b> Oliy ta'lim talabalarining sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish kompetentligini takomillashtirish .....	25
<b>Wang Ping.</b> Exploration of ethnic music elements in chinese piano works .....	29
<b>Kadirov A.M., Ergasheva Sh.Q.</b> The role of fine arts in installing the values of human dignity in general education pupils .....	32
<b>Nadirxanova N.A.</b> Enhancing creative competence in students through the steam educational methodology: integrating visual arts and engineering graphics .....	38
<b>Axmedova D.X.</b> Interfaol usulda rag'batlantirishning o'quvchilar ta'lim-tarbiyasiga ijobiy ta'siri .....	44
<b>O'rinboyev M. I.</b> Fizika o'qitish amaliyotida metakognitiv faoliyatlarni takomillashtirish .....	48
<b>Burxonova M.M., Sirojiddinov B.A.</b> Amaliy mashq va masalalarning kontekstual asoslari hamda umumta'lim maktablarda qo'llanilishi bo'yicha pedagogik-metodik aspektlar .....	51
<b>To'raxonova B.T.</b> Bo'lajak pedagog-psixologlarni tarbiyaviy faoliyatini tashkil etishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari .....	54
<b>O'smanova D.Z.</b> Zamonaviy dars jarayonida adabiy-nutqiy kompetensiyani shakllantirish, ilg'or pedagogik texnologiyalar orqali rivojlantirish .....	57
<b>Xudoyberganova M.A.</b> Talabalarga adabiyotni o'qitishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning samarali texnologiyalari .....	61
<b>Iminova D.N.</b> Innovativ loyihalar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish motivatsiyasini rivojlantirishning mazmuni .....	65
<b>Abdulmadjidova M.D.</b> Ilk o'spirinlik davrida mehnatga munosabatning shakllanishi .....	68
<b>Dushabayeva G.M.</b> Mustaqil ta'limda chizmachilik fanidan kompyuter dasturlarda foydalanishning ahamiyati .....	71
<b>Utanova V.M.</b> Diskurs tahlili: umumiy ta'rif, metodologiya va misol .....	75
<b>Qoraboyev J.B., Qoraboyeva N.N.</b> Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik ma'no tuzilishi .....	78
<b>Umarov A.V.</b> Ilmiy-ma'rifiy media loyihalar – talabalarining mediasavodxonligi va axborot madaniyatini rivojlantiruvchi didaktik vosita sifatida .....	81
<b>Qodirova O.S.</b> Maktabgacha ta'lim yoshida bolalarning ta'lim faoliyatiga faol tashabbuskorlik munosabatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari .....	86
<b>Aslonov X.Sh.</b> Dasturlangan laboratoriya ishlarida yarimo'tkazgichlarning ta'qiqlangan zona kengligi tushunchasi .....	89
<b>Bakirov I.H.</b> Boks sport turida musobaqalarning o'tkazish turlari va musobaqa faoliyati .....	94
<b>Saidg'aniyev S.O.</b> Bolalar uchun sport gimnastikasi .....	98
<b>Tojiboyeva N.T.</b> Ta'lim muhitida o'zini-o'zi boshqarishda qiyin bo'lgan o'smirlarning hissiy qulayligining psixologik jihatlari .....	100
<b>Dushabayev D.Sh.</b> Umum ta'lim maktablarda jismoniy tarbiya darslarida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish .....	103
<b>Abdullaev G'A.</b> The method of determination of aerobic and anaerobic treshhold by heart rate of athletes in the development of endurance qualities in athletics training (In the case of middle and long distance runners) .....	106
<b>Qurbonova F.M.</b> Talabalarining jamoada ishlash qobiliyatlarini kollobratsiya asosida shakllantirishning psixologik xususiyatlari .....	110
<b>Shobduraximova U.T.</b> Tavakallchilikka asoslangan virtual o'yinlar va ularning jamiyatga salbiy ta'siri .....	113
<b>Hasanova S.K.</b> Development of creative thinking of primary class students based on pirls' flows .....	115
<b>No'monova A.N.</b> O'zbekiston ta'lim tizimiga tasviriy san'atning rang tasvir yo'nalishini tadqiq etishning dolzarb masalalari .....	119
<b>Toshtemirov Q.Q.</b> Umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida milliy musiqa merosi "shashmaqom"ni o'rganishning ahamiyati .....	122
<b>Gofurjanova N.K.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturlaridagi ishtirokning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni .....	126
<b>IJTIMOIY GUMANITAR FANLAR</b>	
<b>Yusupova S.N., Bakhronov B.</b> Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muamolari .....	129
<b>Olimova Z.I.</b> Abdulla Avloniyning Turkiston o'lkasidagi jadidchilik harakatiga qo'shgan hissasi .....	132
<b>Mirzayeva B.</b> Maishiy zo'ravonlikning ijtimoiy-falsafiy mohiyati .....	134

## 2. Har bir nutqning qisqacha mazmunini yaratish uchun tez o'qish o'tkazing (sintetik usul)

Har bir nutqni alohida-alohida umumlashtirish uchun o'quvchi jadvaldagi ma'lumotlarni satr-satr o'qiydi.

3. Muayyan mavzu bo'yicha turli javoblarni solishtirish uchun ustun o'qishni o'tkazing (analitik usul). Turli javoblarni tahlil qilish uchun o'quvchi ustundagi jadvaldagi ma'lumotlarni o'qishi kerak.

## 4. Jadvalga izoh yozing.

Jadvalni gorizontal va vertikal ravishda o'qib chiqqandan so'ng, o'quvchi jadvaldan xulosa chiqarishi kerak.

Nutqlarning qisqacha mazmuni savol bo'yicha o'quvchining fikri yoki mulohazalarini o'z ichiga olmaydi. U yaqinlashuv va divergentsiya nuqtalarini ochib berish orqali turli odamlarning fikrlashlarini umumlashtirishni o'z ichiga oladi.

Diskurs tahlili o'quvchiga qo'shimcha ma'lumot to'plash imkonini beradi. Ushbu uslub bir mavzu bo'yicha turli nutqlarni solishtirish, bu dastlabki farazlarga aniq javoblarni topish va yangi ishchi farazlarni ishlab chiqish uchun foydalidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xonazarov Q.X. Kommunizm qurish davrida o'zbek tili rivojlanishining umumsotsiologik aspektlari // O'zbek tili nutq masalalariga bag'ishlangan Respublika tilshunoslik konferensiyasi. – Toshkent: "Fan", 1986
2. Berdivaliyev A., Turdibekov M. Sotsiolingvistik. – Toshkent: "Nodirabegim", 2022.

UO'K 81.25

### INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK MA'NO TUZILISHI

<https://zenodo.org/records/13292433>

**Qoraboyev Jasurbek Bohodirovich**

*Andijon davlat pedagogika instituti*

**Qoraboyeva Nargiza Ne'matjanovna**

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti*

**Annotatsiya.** Maqola tilshunoslikda frazeologik birlikning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib unda ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birlikning o'рни hamda axborot yetkazishdagi roli va ularning stilistik xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** frazeologik birlik, ekvivalentlik, ekspressiv, kognitiv, emosema.

**Аннотация.** Статья посвящена анализу уникальных особенностей фразеологизма в лингвистике, выделены место и роль фразеологизма в английском и узбекском языках, их роль в передаче информации и их стилистические особенности.

**Ключевые слова:** Фразеологизм, эквивалентность, экспрессивная, когнитивная, эмосема.

**Abstract.** The article is devoted to the analysis of the unique features of the phraseological unit in linguistics, the place and role of the phraseological unit in English and Uzbek languages and their role in conveying information and their stylistic features are highlighted.

**Key words:** phraseological unit, equivalence, expressive, cognitive, emoseme.

Frazeologik ma'no ko'p qirrali ekanligi, murakkab ifoda ko'lami va qo'shimcha baholovchi vazifaga egaligi sababli uni o'rganish zamonaviy tilshunoslikning eng muhim va munozarali vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Frazeologik ma'no tahlilida soha mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan tarkibiy leksik ma'no tushunchasiga tayaniladi. Ammo leksik ma'no frazeologik ma'nodan keskin farq qiladi. Frazeologik ma'no real ob'yektlar yoki hodisalar haqidagi tushunchani aks ettiruvchi leksemalar majmuasini boshqa ma'nolarda ifodalashga asoslangan.

Frazeologik birliklar semantikasi yaxlitligi nisbiy, mubolag'alashgan semantikani ifodalovchi frazeologik birliklar tarkibidagi komponentlar o'z asl ma'nolarini yo'qotishi (yoki kamaytirishi) haqiqatdir.

Frazeologik birliklarning tashqi va ichki tarkibining erkin almashilgani holda tarkibga kiruvchi so'zlar qat'iy shaklga egaligi ularni og'zaki realizatsiya qilishga tayyorligini ko'rsatadi [1].

B.A.Larin frazeologik birikma frazeologik birlik o'ziga xosligi, uning murakkabligi va "qo'shimcha ma'noga" egaligida deya ta'kidlagan edi. Uning fikriga ko'ra, "frazeologik birlik ma'nosi uning tarkibidagi alohida olingan so'zlar yig'indisidan farqli kengroq ma'no" beradi [2].

Frazeologik birikma mazmunidagi "yangi ma'no", "ma'no kengayishi", "semantik to'ldirilish", "qo'shimcha ma'no" hodisalari aksariyat hollarda badiiy yoki og'zaki nutqda paydo bo'lib, faqatgina shu nutqlar doirasidagina qo'llaniladi [3].

A.M.Melerovich "Biz frazeologik birikma mazmuniga bog'langan ma'nolarni birikma tarkibidagi so'zlar ma'nolarining mavhumlashuvidan paydo bo'lgan ma'no va bu ma'no birikma tarkibidagi so'zlar ma'nolaridan farqlanuvchi til birligi sifatida tahlil qilamiz". deya ta'kidlagan edi [4].

Frazeologik birikma tarkibida ma'lum bir aspektlar va makrokomponentlarning paydo bo'lishi aniqlangan. Makrokomponentlar o'z navbatida yana kichikroq mikrokomponentlardan qurilgan bo'lib, ma'noning barcha blok va makrokomponentlari o'zaro uzviy aloqa hosil qiladilar. Bu esa o'z navbatida frazeologik birikma yordamida asosiy va qo'shimcha ifodalarga ega bo'lgan katta hajmli axborotni implitsit shaklda aks ettirishga imkon beradi.

Biz tadqiq qilgan frazeologik birikmalardagi ma'nolar shakllanishi bir paytning o'zida borliqni tafakkuriy va hissiy sezgilar orqali anglashga sabab bo'lib, shubhasiz, narsa-hodisalar haqidagi subektiv tushunchalarimizni ifoda qiladi.

Turli frazeologik maktablar va ularning namoyondalari frazeologik ma'noning murakkab tarkibiy tuzilishini tahlil qilishga turlicha yondashadilar. Jumladan, M.M.Корыленко va N.F.Alefirenko frazeologik ma'no tuzilishida ikkita qutb: denotativ-signifikativ va konnotativ ma'nolarni ajratib ko'rsatadi [5].

Mubolag'alashgan semantikani ifodalovchi frazeologik birliklarning qiymati ob'yekt va atributning ko'rsatilgan mubolag'alashgan semantikani ifodalovchi frazeologik birliklar o'lchovi o'rtasidagi semantik aloqaning muvofiqligi buzilishi natijasida yuzaga keladi. Mubolag'alashgan semantikani ifodalovchi frazeologik birliklar boshlang'ich denotativning haqiqiy belgilarini va denotativ belgilari ularning mubolag'alashgan semantikani ifodalovchi frazeologik birliklar mavhumligi bilan solishtirish mexanizmiga asoslanadi. Belgining ikkita me'yori: haqiqiy va mubolag'alashgan semantikani ifodalovchi frazeologik birliklarni to'qnashuvi va taqqoslash haqiqiy xususiyatni qayta ko'rib chiqishga olib keladi. Mubolag'alashgan semantikani ifodalovchi frazeologik birliklarning signifikativ (ramziy) qiymati- bu nafaqat atribut o'lchovi intensivligining alohida xususiyatiga, balki bu xususiyat aks ettiriladigan umumlashtirilgan shakldagi vaziyatga bog'liqligi: bu tarkibiy rejaning barcha pragmatik tarbikiy qismlarini o'z ichiga oladi. Mubolag'alashgan semantikani ifodalovchi frazeologik birliklarni nutqda (matnda) qo'llanganida mubolag'a modeli ma'lum bir motiv va kontekst bilan bog'liq bo'lgan yangi denotativ ega bo'ladi va faqatgina bir mubolag'a shakli bilan aloqa qiladi.

Frazeologizm denotativ tushunchasi, uning belgisidan farqli o'laroq, atama sifatida ham yetarlicha izohlangan emas. Frazeologik birlik denotativ chegaralaridagi noaniqlik ularni tahlil qilishning o'ziga xos jihati hisoblanadi. Natijada, frazeologik birlik tegishli tahlil jarayonida ular

va ifoda qilinayotgan obekt o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri emas balki assotsiativ bog'lanish paydo bo'ladi. Bunda denotat va ob'yekt o'rtasida ifoda qamrovining kengligi va aspektlari qorishuvi uzoqlashadi.

Frazeologik birlik faqatgina borliqdagi ma'lum bir qismni aks ettirish bilan bir qatorda, denotat – narsa-hodisa, real va ko'chma ma'nolardagi uyg'un" ifodasi bo'lib ham xizmat qiladi [6].

Denotat tilda tashqaridagi obekt sifatida borliqda mavjud va qator belgi-xususiyatlarga egadir. Ammo bu belgi-xususiyatlarni tanlab olish subektiv masala. Mubolag'ali frazeologik birlik aniq bir vaziyatda qo'llanilishi so'zlovchi va tinlovchiga ma'lum bo'lgan aniq bir xususiyatga asoslanib, obektning faqatgina bitti belgisiga aloqador bo'ladi. Shu munosabat bilan, frazeologik birliklarning predmet korrelyatsiyasi uning semantik tarkibiga kirishi mumkin degan xulosaga kelishimiz mumkin, ammo ma'lum bir kontekstda o'ziga xos bo'ladi.

Frazeologik ma'no shakllanishida nafaqat belgining ob'yektiv yoki hissiy xususiyatlari, balki shaxsning predmetga bo'lgan sub'yektiv munosabati ham ishtirok etadi. Masalan mubolag'alashgan frazeologik birlik *"to get (have) butterflies in one's stomach"* ("oshqozondan kapalaklar olish", oshqozonda yoqimsiz hislarni boshdan kechirish") o'zining g'ayriodatiy/kam qo'llanilishi bilan o'quvchining e'tiborini darhol jalb qiladi, Unda qo'rquv va havotir tuyg'ulari bir-birlaridan belgining o'xshashligidan uzoq turuvchi xususiyatlar bilan ifoda qilinadi.

Ingliz tilidagi *"to be on pins and needles"*(igna/tikon ustida bo'lmoq)" iborasi *"igna/tikon ustida o'tirish; cho'g' ustiga o'tirish"* shaklida asabiy holatni aks ettiruvchi birikmadir, shuningdek, haddan tashqari kuchaytirilgan belgi yordamida hissiyot keskinligining sub'yektiv tavsifini kuchaytiradi.

"Teshik bosh" frazeologik birligi (hamma narsani doim unutib qo'yadigan odam haqida) nafaqat tildan tashqari voqelik ob'yektning tegishli atributini nomlaydi va tavsiflaydi, balki unga nominal tarzda berilgan salbiy bahoni ham beradi.

O'zbek tilidagi *"madrasa tuprog'i(ostonasi)ni yalamoq"* (bilim olish, qattiq o'rganish, amaliyot) frazeologizmi ushbu jarayonlarning murakkabligi va davomiyligi nuqtai nazaridan o'rganishlar tadqiq qilish uchun tegishli yondashuvni anglatadi. "yalash" (tishlash) va "tuproq" (ostona) leksemalarining bir vaqtda foydalanish ularning tom ma'nolari mantiqiy nomuvofiqligidan dalolat beradi, bu o'quv jarayonining bir – biridan uzoq bo'lgan va mubolag'alashgan semantikani ifodalovchi frazeologik birliklar effektini yaratadigan xususiyatlariga mos keladi.

Frazeologik birikma tarkibida signifikativ-denotativ komponentni ustuvor ma'no sifatida yuzaga chiqishini tan olishimiz kerak. Bunda konnotatsiyaga tinglovchiga hissiy ta'sir ko'rsatishga qaratilgan signallar majmuasi sifatida qarashimiz lozim bo'ladi. Aynan konnotativ aspekt frazeologik birlik tasvirlanayotgan obektga nisbatan u yoki bu munosabatni shakllantirib birikma tarkibidagi boshqa til birliklaridan keskin ajralib turganligi bois anchayin chuqur tahlil qilishni taqazo etadi.

V.N.Teliyaning ta'kidlashicha: "Konnotatsiya bu til birliklarining semantikasida odatiy yoki tasodifan shakllangan va so'zlovchi nutqida predmetiga nisbatan hissiy–baholovchi va stilistik jihatdan belgilanadigan munosabatini ifoda etuvchi semantik mohiyatdir. Ayni shu ma'lumotlar asosida ekspressiv ta'sir paydo qilinadi" (7).

Shaxovskiyning fikriga ko'ra, konnotatsiyaning asosiy vazifasi sifatida: "So'zlovchining ob'yektga yoki uning individual xususiyatlariga nisbatan hissiy munosabatini aks ettiruvchi mantiqiy hissiy hamohanglik tushunilishi kerak" (8).

Mubolag'alashgan semantikani ifodalovchi frazeologik birliklarning formal tomonlari shakllanishi jarayonida tafakkur (abstrakt-mantiqiy) va hissiy sezgilar birdek ishtirok etadi.

Predmet belgisi me'yorining yuqori intensivligini e'tiborga oladigan bo'lsak, mubolag'alashgan semantikani ifodalovchi frazeologik birliklarning lingvistik shakllari sabab-oqibat tamoyillariga asoslangan aloqalarni keltirib chiqaradi. Shunisi qiziqarliki, bunda urg'u berilgan xususiyatni ob'yektiv aniqlashga emas, balki nomlash mavzusiga ular boshidan kechirgan barcha tajribalarni, boshqacha qilib aytganda, tinglovchilarga hissiy ta'sir ko'rsatish maqsadida suprasub'yektiv hissiyotlarni yetkazish niyatida qilinadi. Mubolag'alashgan semantikani ifodalovchi frazeologik birliklardan foydalanilganda so'zlovchining emotsional holati uning atrofda voqelikni mubolag'alashgan semantikani ifodalovchi frazeologik birliklardan boshqacha holda idrok eta olmasligini aks ettiradi.

Majoziy ma'nolarda qo'llanilgan frazeologik birlikning ma'nolari ikki xil nuqtai nazardan tahlil qilinganligi bois uning tarkibiy komponentlari konnotatsiyasi va ma'nosi to'laligicha muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida biz tahlil qilgan mubolag'alashgan semantikani ifodalovchi frazeologik birliklar birikma tarkibida asosiy va ikkilamchi vazifada qo'llanilishlari mumkin. Konnotativ (bog'lovchi) komponenti signifikativ (tarkibiy) – denotativ komponent bilan bir qatorda frazeologik birliklarning ma'nosini yaratadi, shuningdek, ularni til birliklaridan farqlashga yordam beradi. Frazeologik birlik ma'nosining konnotativ (biriktiruvchi) makrokomponenti murakkab uyushgan yaxlitlikdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Бабенко Л.Г. Функционально-семантический класс глаголов эмоциональной деятельности. сб. науч. тр. - Новосибирск, 1985. - С. 41-48.
2. Байрамова Л.К. Введение в контрастивную лингвистику: Учеб.пособие для студентов вузов, обуч. по напр, и спец. «Лингвистика» - Казань: Изд-во Казан, ун-та, 1994. - 119 с.
3. Балли Ш. Французская стилистика. - М.: Изд-во иностранной литературы, 1961.-394 с.
4. Колшанский Г.В. Контекстная семантика. - М.: Наука,1980, с-148.
5. Кунин А.В. Основные понятия стилистики в области фразеологии. сб. науч. тр. - Пермь, 1983. - С.44-49.
6. Кунин А.В. О фразеологической дефиниции. Сб. науч. тр. - М., 1987. - Вып. 287. — С. 109-118.
7. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 92 b.
8. Телия В.Н. Что такое фразеология. М.: Изд-во «Наука», 1966. С-85

UO'K: 378.091.3:004:62

#### **ILMIY-MA'RIFIY MEDIA LOYIHALAR – TALABALARNING MEDIASAVODXONLIGI VA AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRUVCHI DIDAKTIK VOSITA SIFATIDA**

<https://zenodo.org/records/13292435>

**Umarov Azizbek Vahobovich**  
*Andijon davlat pedagogika instituti*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada talabalarda mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirishda o'z-o'zini boshqarish va baholash, formal va noformal ta'limda mediasavodxonlik va axborot madaniyatining rivojlanishi keng tadqiq qilindi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik, psixologik, ijtimoiy zarurati tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *mediasavodxonlik, axborot madaniyati, media loyihalar, didaktik vosita, xorijiy amaliyot, tanqidiy fikrlash.*

**Аннотация.** *В данной статье широко изучены вопросы самоуправления и оценки в развитии медиаграмотности и информационной культуры среди студентов, развитие медиаграмотности и информационной культуры в формальном и неформальном образовании.*

